
Vatanparvarlik karvoni Qo'shtepada

Yurtimiz bo'ylab davom etayotgan harbiy-vatanparvarlik tadbirlari Qo'shtepa tumanida ham ko'tarinki ruhda davom etmoqda.

Xususan, bugun Sharqiy harbiy okrug Farg'ona garnizonidagi harbiy qismdan yo'lga chiqqan harbiy-vatanparvarlik karvonining navbatdagi manzili Qo'shtepa tumanidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri" shiori ostidagi vatanparvarlik tadbirlari Qo'shtepada o'zgacha shukuhda o'tkazildi.

Tadbirda tuman sektor rahbarlari, Sharqiy harbiy okrug qo'mondonligi, hokimiyat vakillari, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining mas'ullari, faxriylar hamda yoshlar ishtirok etishdi.

Tadbir avvalida ishtirokchilar harbiy orkestr sadolari ostida tantanali yurishni amalga oshirishdi.

Tadbirda so'z olgan tuman hokimi A.Abdullayev va boshqalar ishtirokchilarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan kuni bilan tabriklashdi.

Undan so'ng faxriy qorovulning saf chiqishlari va qo'l jangi chiqishlari namoyish etildi. Qurol-aslahalar ko'rgazmasida navqiron avlod vakillari milliy armiyamizning jangovar qobiliyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishdi.

Bir so'z bilan aytganda ushbu tadbir o'quvchi-yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

2024-12-23 16:44:59